

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.D.Mirkomilov, N.A.Xomidova, T.A.Fayziyeva, D.S.Ro'zaliyeva, G.T.Sotiboldiyeva, S.A.Abduxakimova	
Dorivor Qora zirkni yetishtirishda mineral va organik o'g'itlarning ahamiyati	207
M.X.Diyorova, S.X.Islomova, Sh.Normurodova	
Sug'oriladigan qumli cho'l va taqirli tuproqlarining fizik xossalari	210
M.A.Raximov, R.M.Azizov, M.E.Nuraddinova	
Asalari zararkunandalari (chala rivojlanish sikldagi hasharotlar turkumi)	214
M.A.Mirzayeva, F.M.Komiljonova	
Dorivor o'simlik Zafaron yetishtirish texnologiyasi	219
Q.A.Davronov, N.I.Teshaboyev	
G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga bargidan mikroelementli o'g'itlar bilan oziqlantirish muddatlari va me'yorlarining ta'siri	223
M.P.Yuldasheva, X.O.Olimjonova, G.Baxtiyorova	
Farg'ona vodiyisidagi ayrim baliqchilik xo'jaliklari algoflorasining bioxilma-xilligi	228
П.К.Турдалиева	
Исследование содержания флавоноидов и биоэлементов в надземной части <i>Taraxacum officinale wigg. s.L.</i> произрастающей в Южной Фергане	234
M.A.Raximov, R.O.Azizov, M.E.Nuraddinova	
Asalarichilikda nasilchilik ishlarini tashkil etish	239
N.I.Teshaboyev	
Dehqonchilikda tuproqlarni muhofaza qilishning ahamiyati	242
П.К.Турдалиева	
Новый принцип создания биологически активной добавки (бад) к пище, применяемого при лечении и профилактике вирусных заболеваний	245
G.A.Abdullayeva, Q.A.Davronov, Z.T.Sodiqova	
G'o'za parvarishida turli mikroelementli o'g'itlarni qo'llash me'yor va muddatlarini paxta hosiliga ta'siri	248
M.A.Mirzayeva, F.K.Jo'rabloyeva	
Oq va qora (Susame) kunjut o'simligini foydali xususiyatlari va yetishtirish agrotexnikasi	252
Sh.Q.Yuldasheva, M.I.Teshaboyeva, D.A.Oxunova, M.U.Akmajonova	
Nok bog'ini barpo etishda tuproq unumdorligini ahamiyati	256
M.B.Xoliqov, N.K.Junaydullayeva, K.E.Mamarasulova	
Takroriy ekilgan mosh o'simligining tuproq unumdorligiga ta'siri	260
N.N.Aminjonova, T.A.Fayziyeva, S.X.Zakirova	
Tosh-shag'alli turoqlar unimorligini oshirishning No-till texnologiyasi	264
С.Х.Закирова, Т.А.Файзиева, Ф.О.Камолова, Д.С.Рузалиева	
Питательные вещества в песках центральной ферганы	267
M.A.Mirzayeva, M.A.Abdurahimova, D.A.Akbaraliyeva M.Toshturg'unova	
Dorivor Oq karrak (Rastoropsha) o'simligini yetishtirish texnologiyasi, biologiyasi, shifobaxsh xususiyatlari va sohalarda qo'llanilishi	271
R.Komilov, A.A.Abdurahmonov	
Amarant dorivor o'simligini (Amaranthus) yetishtirish agrotexnikasi va uni dorivorlik xususiyatlari	274

**4-SHO'BA: TUPROQSHUNOSLIK, AGROKIMYO VA TUPROQ BIOGEOKIMYOSINI
O'QITISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI**

U.B.Mirzayev	
Tuproqshunoslik va agrokimyo fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadbiq etish	279
X.A.Abduxakimova, G.T.Sotiboldiyeva, M.A.Muhammadjonova	
Tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarini qo'llash va interaktiv usullardan foydalanish	284
M.M.Azimov	
Tuproqshunoslik va zamonaviy ta'lim muammolarining qisqacha tahlili	288
Sh.Y.Eshpulatov, Sh.E.Yursunova	
Mahsuldar uzum navlarini yetishtirishda tuproqqa ishlov berishning ahamiyati	292



UO'K: 638.575.1.

ASALARICHILIKDA NASILCHILIK ISHLARINI TASHKIL ETISH

ОРГАНИЗАЦИЯ ПЛЕМЕННОЙ РАБОТЫ В ПЧЕЛОВОДСТВЕ

ORGANIZATION OF BREEDING WORK IN BEEKEEPING

Raximov Madaminjon Alijonovich¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, q.x.f.n., dotsentAzizov Raxmatullo Olimjon o'g'li² ²Farg'ona davlat universiteti, talaba.Nuraddinova Maftunaxon Erali qizi³ ³Farg'ona davlat universiteti, talaba.

Annotation

Maqolada asalarichilikda asalari oilalarini tanlash, kuchini aniqlash usullari, suniy usulda ona ari tayyorlash, bo'lish va yosh ari oilalari etishtirish, asalarilar naslini takomillashtirish ishlari yoritilgan.

Annotation

В статье описан подбор пчелиных семей в пчеловодстве, методы определения их численности, искусственная подготовка пчелиных маток, селекция и разведение молодых пчелиных семей, совершенствование пчеловодства.

Abstract

The article describes the selection of bee families in beekeeping, methods for determining their numbers, artificial preparation of queen bees, selection and breeding of young bee families, improvement of beekeeping.

Kalit so'zlar. Asalari, oila, tanlash, sun'iy, nisl, zot, ko'paytirish.

Ключевые слова. Пчелы, семья, селекция, искусственное, потомство, порода, селекция.

Key words. Bees, family, selection, artificial, offspring, breed, selection.

KIRISH

Zotli asalari tayyorlash yoki toza zotni ko'paytirish ommaviy fenotipik va individual, genotipik tanlash, ya'nı oddiy va murakkab zotlararo sanoat chatishtirish asosida olib boriladi. Ommaviy tanlash asalarichilik fermer xo'jaligida asalarilar oilasining foydali xo'jalik va zot sifatlarini yaxshilashda eng qulay va sinalgan usuldir. Uning mohiyati reja asosida eng yomon asalarilar oilasini yo'qotib, eng yaxshi oilalarni jadal ravishda ko'paytirishdir. Asalarichilikda asalari oilalarini tanlashning asosiy mazmuni asal mahsuldarligidir. Uni ko'paytirish esa naslchilik ishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Unda arilarning qishlovga, kasalliklarga chidamliligi, ona asalarining serpushtligi, asalari oilasining qay darajada rivojlanganligi, roylarga (ko'chga) ajralishi, mum mahsuldarligi va umuman, asalarichilikning rentabelligi kabi foydali xo'jalik belgilari ham hisobga olinishi kerak. Asalarilarning mahsuldarligi olingan yalpi asal miqdori bilan baholanadi[1,2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asalari oilalari. Qishda asalarining bitta oilasiga yoki uning bir yo'lagiga sarf qilingan oziq miqdori, qishlovga kirgan va qish vaqtida nobud bo'lgan asalarilar soni (gramm yoki yo'lak hisobida), arixonaning o'tish darajasi aniqlanadi[3,4]. Asalari oilasining sog'lomligi, u yoki bu kasalliklarga chidamliligi, tuxumdan chiqqan lichinka va yetuk asalarilarni doimiy ravishda ko'rib chiqish va veterinariya-bakteriologik laboratoriyalarda analiz qilish yo'li bilan aniqlanadi. Nasldor oilalar mutloq sog'lom bo'lishi kerak.

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO**NATIJA VA MUHOKAMA**

Asalari oilasining kuchini uyadagi asalari miqdoriga (bitta romda 200–250 asalari bo'ladi) va ona arilarning romdag'i nasl bo'yicha serpushtligiga (ochiq va pechatlangan naslni birga olganda) qarab bahorda, asosiy asal yig'ish vaqtining boshlanishida va kuzgi taftish o'tkazish vaqtida aniqlanadi. Asalarining roylanish, ya'n'i oilalarga ajralib ketish xususiyatiga baho berish quyidagi oddiy shkala bo'yicha aniqlanadi, arilar yangi oilaga ajralish (roylanish) holati bo'lmasdi, oilaga ajralish holati bo'ldi, lekin ajralmadidi, yangi oilaga ajraldi. Asalarining mum yig'ishdagi mahsuldorligi mumdan sun'iy qurilgan inlar soni bilan belgilanadi. Shunday qilib, mavsum oxiriga kelganda asalari oilalari yuqorida aytilgan belgilar bo'yicha baholanib, uch guruhga ajratiladi.

Birinchi guruhga nasldor asal yig'ishda mahsuldorligi bo'yicha asalarichilik xo'jaliklarining o'rta ko'rsatkichidan 1,5–2 barobar yuqori natija bergan, qishlovdan yaxshi chiqqan, kasallanmagan, serpusht ona arisi bo'lgan 10–15 % eng yaxshi asalari oilalari kiradi. Bundan tashqari, birinchi guruhga kiradigan asalari asl zotli bo'lishi, ya'n'i hamma mavjud belgilari bilan shu zot talablariga javob berishi kerak. Masalan, agar o'rta rus zoti bo'lsa, uning tanasi sariq rang bo'lmasligi, asal muhri oq (quruq) bo'lishi kerak va boshqalar[5].

Ikkinci guuruhga eng katta mahsuldorligi xo'jaliklarining o'rtacha ko'rsatkichlariga teng bo'lgan asalari oilalari kiradi.

Uchinchi guruhga asalari ollasida qishlov vaqtida faqat 10–15 % asalari qolgan, eng yomon belgilarga ega bo'lgan va kam mahsul oilalar kiradi. Bu guruhga mansub oila shu mavsumning o'zida yoki kelasi mavsumda brak qilinadi. Kelasi mavsumda nasldor oilalar sifatida birinchi guruh oilalardan foydalaniadi. Ikkinci guruhga mansub oilalardagi ona arilar birinchi guruhda yetishtirilgan ona ari bilan almashtiriladi. Birinchi guruhdagi qari ona arilarni almashtirish va yangidan tashkil qilinadigan shahobchalarga ona ari o'tkazish uchun shu guruhning eng yaxshi oilalarida tarbiyalangan ona arilar tanlanadi [6,7,8].

Birinchi guruhdan ajratib olingen trutenlar (erkak arilar) oilasida ko'plab trutenlar yetishtirish uchun nihoyatda qulay sharoit yaratilishi kerak. Masalan, 1–2 ota ari mum inlarga qo'yildi, uyalar yaxshilab isitiladi, doimiy ravishda rag'batlantiruvchi oziq beriladi. Shuningdek, asalarichilik xo'jaligining boshqa oilalarida trutenlar yetishib chiqmasligi uchun butun chora-tadbirlarni ko'rish zarur[9,10,11,12].

XULOSA

Asalari naslini yaxshilash ishlari mavaffaqiyatl o'tishi uchun, ayni paytda, orasi 12–15 km bo'lgan qo'shni asalarichilik xo'jaligida ham tumanlashtirilgan zot ustida ish olib borilishi kerak. Aks holda, ona arilarning ko'pchiligi mahsuldorligi past bo'lgan qo'shni xo'jalikdagi erkak arilar bilan juftlashishlari mumkin. Yosh ona arini urchitish uchun begona erkak asalari oilasidan olish maqsadga muvofiq. 3–4 yildan keyin bir zotga tegishli asalarilarni ko'paytiradigan va bir-biridan 25–30 km uzoqlikda joylashgan ikkita qo'shni xo'jalikdagi nasldor asalari oilalarini almashtirish yaxshi samara beradi, ya'n'i bir oilaning ona va erkak arilarini juftlashishlariga yo'l qo'yilmaydi. Bo'g'indan bo'g'inga o'tkaziladigan ommaviy tanlash asalari oilalari zot belgilaringning yangi oilalarga turg'unlik bilan o'tishini ta'minlaydi. Natijada keyingi bo'g'inda ham yuqori mahsuldorlik va boshqa foydali xo'jalik belgilari saqlanib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aljonovich R.M., Madumarovna N.M. Qishloq xo'jaligi bioteknologiyasi //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 315-317.
2. Рахимов М.А., Азизов Р.О. Генетический потенциал крупного рогатого скота //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 6. – С. 600-603.
3. Rakhimov M., Nurmatova M. Морфологический и биохимический состав крови бычков крупного рогатого скота //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D8. – С. 12-16.
4. Рахимов М. Рациональное использование генетических ресурсов при выращивании скота на мясо //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – С. 158-161.
5. Aljonovich R. M. et al. EFFICIENT BEEF PRODUCTION TECHNOLOGY //Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 259-263.
6. Рахимов М., Абдурасулов Х. Интенсивная технология откорма молодняка привозного скота //Scientific journal of the Fergana State University. – 2018. – №. 6. – С. 42-42.
7. Aljonovich, Rakimov Madaminjon, and Javxarov Oybek Zulfikharovich. "Organization of full-value feeding of dairy cows in farm." Gospodarka i Innowacje. 24 (2022): 840-843.

3-SHO'BA: TUPROQ-O'SIMLIK-HAYVONOT VA INSON ZANJIRIDA BIOGEOKIMYO

8. Рахимов М. А. Резервы повышения мясной продуктивности бычков крупного рогатого скота при откорме //АгроВест. – С. 66-68.
9. Рахимов М. А. Мясная продуктивность и качество мяса бычков черно-пестрой, швицкой пород и помесей черно-пестрой х красной эстонской при интенсивной технологии производства говядины//Авто-реф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. с.-х. наук.-Новосибирск, 1989.-20 с. – 1989.
10. Raximov, M., Muydinov, X., Abdullayeva, G., & Komiljonov, A. (2021, July). Peculiarities of the influence of climatic conditions on the morphological and biochemical composition of the blood of bulls of transported cattle. In Конференции.
11. Рахимов М. А. Влияние технологии кормления на рост и развитие бычков, выращиваемых на мясо //Жур. АгроВест, Ташкент. –2021.Т. 5. С. 65.
12. Рахимов М., Майдинов Х., Комилжонов А. Интенсивная технология выращивания телок привозного скота //Scientific journal of the Fergana State University. –2021. – №. 2. – С. 26-26.